# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

№ 6




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 420 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 30-iyunda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,** TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi,** Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TDIUprofessori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d., TSUE professori
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musayeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Cham Tat Huei,** ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta o'qituvchisi
**Djudi Smetana,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Krissi Lyuis,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Ali Konak (Али Кўнак),** i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
**Glazova Marina Viktorovna,** i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung,** honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten,** member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich,** DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich,** DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna,** PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich,** CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich,** DSc, Prof., of the People’s Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja ugli,** DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod,** Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich,** DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva,** professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei,** PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna,** CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** p.f.f.d., (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari ........ 16
**Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna**

Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda ........ 20
**Muxiddin Kalonov**

"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish ........ 24
**Muhammadiyeva Maftuna**

Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati ........ 27
**Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna**

Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash ........ 31
**Dustmurodov Orifjon Ismatilloyevich**

Перспективы развития средств размещений в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана ........ 40
**Ахмедходжаев Равшан Темурович**

Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari ........ 49
**Toyirov Yunus Alamovich**

Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari ........ 55
**Rustamov Alisher Raxmataliyevich**

Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish ........ 62
**Ustadjalilova Xurshida Aliyevna**

Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati ........ 67
**Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich**

Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi ........ 71
**Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich**

Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari ........ 76
**Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li**

Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya ........ 81
**Yuldashev Iskandar Bahromovich**

Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar ........ 86
**Jiyanova Nargiza Esanboyevna**

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari ........ 93
**Z. Abdikarimova, S. Madaminov**

Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari ........ 97
**Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov**

Sociological Assessment of Migration Processes ........ 102
**Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli**

Current issues of business management in the context of digitalization of the economy ........ 112
**Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich**

Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ ........ 118
**Эркинов Шахзод Баходир ўғли**

Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .............125
**Abirkulova Sohibjamol**

Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan) .............130
**Bakhrom Nomazov**

Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .............136
**Bozorova Saxobat Abdujapparovna**

Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy .............142
**Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli**

O‘zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli .............148
**Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi**

Agroklasterlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta’mirlash xarajatlarini tahlil qilish .............155
**G‘afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug‘ofur o‘g‘li, Narzullayev Nodirbek Aziz o‘g‘li**

Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks .............160
**Juraev K. T.**

Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish .............164
**Mamasoatov Dilshod Ravshanovich**

Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati .............169
**Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o‘g‘li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa’dulla Namozovich**

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning joriy holati tahlili .............175
**Rahmatullayeva Dilbar Olimovna**

Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish .............181
**Raxmatov Akmal Anvar o‘g‘li**

The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan) .............187
**Rofeeva Rukhshona Shavkatovna**

Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar .............192
**Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich**

Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region .............196
**Shakhzod Zokhidov**

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish .............202
**Kadirova Shaxnoza Ilhomovna**

Yangi O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari .............207
**Usmonov Baxodir Suvonqulovich**

Temir yo‘l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo‘llari .............211
**Nasimov Shavkat Vasiyevich**

O‘zbekistonda banklararo raqobat .............219
**Zunnunova Xulkar Muxtorovna**

O‘zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta’minlashni takomillashtirish .............225
**Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich**

Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari .............229
**Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov**

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati .............233
**Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich**

Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to‘g‘risida hisobot tuzishning bosqichlari....237
**Eshonqulov Azamat Abdiraximovich**

Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari....241
**Karayev Payzillaxon Yusufxonovich**

Tog‘ turizmini rivojlantirish manfaatlari yo‘lida investitsiya resurslarini to‘plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari....245
**Xidirov Alimardon Dagarovich**

The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English....248
**Nilufar Turdiyeva**

Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati....252
**Suleymanov Farrux Raximjon o‘g‘li**

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o‘zgarishlar dinamikasi....256
**G. Sh. Qo‘ldosheva, A. J. Toshboyev**

Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации....260
**Каюмова Паризода**

Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari...266
**G. I. Abdulxamidova**

Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива....272
**Shahzad Zokhidov**

Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise....275
**Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich**

Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан....282
**Холбекова Дилобар Расулжон кизи**

O‘zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalari....289
**Gafurov Ubaydullo Vaxabovich**

Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi....296
**Dilnoza Meyliyeva**

Cross Cultural Preoblems in International Business Negotiations....301
**Xoldarova Fariza Tuxtabayevna**

Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribani qo‘llash....304
**Haydarova Shoxista**

Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari....310
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna**

Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish....315
**Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna**

Spin korxonalar – texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida....320
**O‘rinov Dilshodjon Axmadjonovich**

Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta’minlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni takomillashtirish strategiyasi....324
**Xolbekova Feruza Rasulovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Iqtisodiy o‘sish va aholi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikning nazariy asoslari ....329
**Hasanova Nigora Hasan qizi**

Современное состояние маркетинга на рынке ценных бумаг Республики Узбекистан ....334
**Юлдашев Жамшид Абрарович**

Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish ....340
**S. A. Karabayev**

Axborot telekommunikatsiya tarmog‘i korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligi ....334
**Temirov Anvarxon Abdulazizxonovich**

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o‘zgarishlar dinamikasi ....347
**G.SH.Qo‘ldosheva[1], A.J.Toshboyev[2]**

Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribani qo‘llash ....351
**Haydarova Shoxista**

Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna** ....357

Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish ....362
**Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna**

Spin korxonalar - texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida ....367
**O‘rinov Dilshodjon Axmadjonovich**

Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar ....371
**Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich**

Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institusional tahlili ....375
**Bahriddinov Viqorjon Akbar o‘g‘li**

O‘zbekistonda investitsion faoliyat, uni moliyalashtirishning zamonaviy ko‘lamlari ....380
va o‘ziga xos xususiyatlari
**Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhriddin Bahriddinovich**

Xalqaro moliya institutlari faoliyatining davlatlar rivojlanishiga ta’siri (Yevropa Tarraqiyot va Tiklanish banki misolida) ....384
**Muxtorov Jahongir Muxtor o‘g‘li**

Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq daromadlar hisobini tashkil etish ....390
**Meliboyev Akmal G‘aybullayevich**

Qurilish materiallari ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy ishlab chiqarish fondlarining t uzilishi hamda hajmi ....394
**Muxtasar Karimova Isroiljon qizi**

Ayollar tadbirkorligi nazariyasining takomillashuvi xususida ....398
**Sharofiddinova Gulnoza Ilxomjonovna**

O‘zbekistonda soliq ma‘murchiligida joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari ....403
**Maxmadustov Jalol Maxmadustovich**

Soliq majburiyatlari ijrosini takomillashtirish yo‘llari ....408
**Mirzaaliyeva Gulchehra Abduvali qizi**

Сравнительное исследование финансовой отчетности, подготовленной в соответствии с мсфо и нсбу ....413
**Эргашева Шахло Тургуновна**

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

# XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI FAOLIYATINING DAVLATLAR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI (YEVROPA TARRAQIYOT VA TIKLANISH BANKI MISOLIDA)

**Muxtorov Jahongir Muxtor o'g'li**
Bank-moliya akademiyasi,
MBA Finance&FinTech guruhi 2-kurs tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalqaro moliya institutlari faoliyatining davlatlar rivojlanishiga ta'siri atroflicha o'rganilgan. Bundan tashqari, Yevropa Tarraqiyot va Tiklanish bankining O'zbekistondagi muassasasiga borib uning faoliyati, kredit portfellarining qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma'lumotlar asosida ekonometrika tahlil usullari yordamida o'rganilgan. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida muammoli aktivlarni kamaytirishni choralari bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon Banki, Amerikaaro Rivojlanish banki, Osiyo taraqqiyot banki, Afrika rivojlanish banki, Yevropa Tarraqiyot va Tiklanish banki (YETTB), kredit portfeli, bank aktivlari, muammol aktivlar, muammoli kreditlar, investitsiya portfeli, kredit riski.

Abstract: In this article, the impact of the activities of international financial institutions on the development of countries is studied in detail. In addition, we went to the branch of the European Bank for Development and Reconstruction in Uzbekistan and studied its activities, the extent to which loan portfolios are implemented, based on statistical data, using econometric analysis methods. On the basis of the studied and analyzed data, scientific and practical conclusions, suggestions and recommendations were developed on measures to reduce problem assets.

Key words: International Monetary Fund, World Bank, Inter-American Development Bank, Asian Development Bank, African Development Bank, European Bank for Development and Reconstruction (EBRD), loan portfolio, bank assets, problem assets, problem loans, investment portfolio, credit risk.

Аннотация: В данной статье подробно изучается влияние деятельности международных финансовых институтов на развитие стран. Кроме того, мы съездили в филиал Европейского банка развития и реконструкции в Узбекистане и изучили его деятельность, степень реализации кредитных портфелей, на основе статистических данных, с использованием методов эконометрического анализа. На основе изученных и проанализированных данных разработаны научно-практические выводы, предложения и рекомендации по мерам снижения проблемных активов.

Ключевые слова: Международный валютный фонд, Всемирный банк, Межамериканский банк развития, Азиатский банк развития, Африканский банк развития, Европейский банк развития и реконструкции (ЕБРР), кредитный портфель, банковские активы, проблемные активы, проблемные кредиты, инвестиционный портфель, кредитный риск.

## KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy markazida Xalqaro savdoni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, barcha sohalarda, xususan, rivojlanayotgan bozorlarda raqamlashtirish tizimini keng joriy qilish, "yashil" shaharlar dasturini ko'paytirish pirovard maqsad qilib olingan. Bu, albatta, katta mablag' va xarajatlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari dunyo iqtisodiyotida katta rol o'ynaydi. Ular turli mamlakatlarga moliyaviy mablag' ajratish va kredit berish faoliyati bilan jahon savdosini rivojlantirish va moliya tizimini barqarorlashtirishga yordam beradilar

Xalqaro moliya institutlari faoliyatini o'rganishning o'zi hozirgi kunning dolzarb ahamiyatiga molik bo'lgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jahon iqtisodiyoti institutsional tuzilmalari faoliyatini zamonaviy holati va rivojlanishining nazariy tahlili esa muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umuman olganda, sohaning mutaxassislari tomonidan xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatiga oid qator nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Xalqaro moliya institutlari xalqaro moliya tizimining institutsional birliklari sifatida, jahon xo'jaligi aloqalarining mustahkamlanishi va mamlakatlarning xalqaro valyuta-kredit aloqalarining rivojlanishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, salmoqli moliyaviy resurslarga ega bo'lgan bu institutlar jahon xo'jaligidagi mintaqa va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sharoitlariga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

"Xalqaro moliya institutlari" atamasi to'g'risidagi ilmiy fikr-mulohazalar ko'plab olimlarning ilmiy ishlarida aks ettirilgan. Jahon banki guruhining bosh texnik maslahatchisi va iqtisod fanlari doktori Bhargava Vinay xalqaro moliya institutlarini, moliyaviy yordam va professional maslahat berishiga urg'u bergan. Xalqaro tadqiqotlar dasturi direktori va siyosiy fanlar professori Ian Hurd esa, konseptual va huquqiy maydonda faoliyat olib borishini ta'kidlagan. O'zbek olimi J.X.Ataniyazovning fikricha, ular moliya va valyuta-kredit munosabatlarini tartibga soladi. Rus olimi E.F.Avdokushinning ilmiy ishlarida ma'lum masalalarni yechish uchun moliyaviy resurslarni birlashtirish ta'kidlagan. Maks Plank nomli ilmiy tadqiqotlar institutining xalqaro huquq ensiklopediyasida esa, dunyodagi mojarolarga javoban, rivojlanish va iqtisodiy hamkorlik tizimini yaratish uchun tashkil etilganiga urg'u berilgan.

Shu bilan bir qatorda, xalqaro moliya institutlari turli soha masalalarini yechish maqsadida a'zo mamlakatlar kapitallarining birlashuvi orqali tashkil etiladi. Ular qatorida:

jahon iqtisodiyoti muvozanati va tartibga solish maqsadida xalqaro valyuta va fond bozorlaridagi moliyaviy operatsiyalar;

xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash;

to'lov balansi defitsitini kamaytirish; davlatlarning mintaqa va soha rivojlanish dasturlarini kreditlash hamda kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish;

infratuzilma, axborot texnologiyalari, transport va aloqa sohalaridagi xalqaro dasturlarni moliyalashtirish; tabiatni muhofaza qilish, fundamental ilmiy izlanishlar va sohalarni moliyalashtirish kabi maqsadlarni o'z oldilariga qo'yishini ta'kidlash mumkin.

Bizning fikrimizcha, xalqaro moliya institutlari – bu jahon moliyaviy-iqtisodiy munosabatlari barqarorligini ta'minlash, xalqaro valyuta-moliya munosbatlarini tartibga solish, ta'sirchan jahon xo'jaligi subyektlariga moliyaviy yordam va professional maslahat berish maqsadida tashkil etilgan, dunyoning eng kuchli islohot o'tkazuvchi xalqaro institutsional birliklari.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Xalqaro moliya institutlari faoliyatining davlatlar rivojlanishiga ta'siri tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotini Xalqaro moliya institutlarisiz tasavvur qilish qiyin, albatta. Xalqaro moliya tashkilotlari (XMT) – xalqaro moliya sohasida davlatlararo (xalqaro) bitimlar asosida tashkil etilgan institutlardir. Xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokchilari davlat va nodavlat tashkilotlar hisoblanadi. Jahon iqtisodiy rivoji uchun xalqaro moliya institutlari quydagi funksiyalarni bajaradi:

- dunyo iqtisodiyotining holati, tendensiyalari va rivojlanish omillari tahlili;
- jahon iqtisodiyotini tartibga solish, xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida global valyuta va fond bozoridagi operatsiyalar;
- investitsion faoliyat (xalqaro va ichki milliy loyihalarga yo'naltirilgan kreditlar);
- davlat loyihalarini kreditlash;
- xalqaro ko'mak dasturlarini moliyalashtirish;
- ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish;
- xayriya faoliyati.

Xalqaro moliya institutlari xalqaro moliya tizimining institutsional birliklari sifatida, jahon xo'jaligi aloqalari-

ning mustahkamlanishi va mamlakatlarning xalqaro valyuta-kredit aloqalarining rivojlanishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, salmoqli moliyaviy resurslarga ega bo'lgan bu institutlar jahon xo'jaligidagi mintaqa va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sharoitlariga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Shu bilan bir qatorda, xalqaro moliya institutlari turli soha masalalarini yechish maqsadida a'zo mamlakatlar kapitallarining birlashuvi orqali tashkil etiladi. Ular qatorida:

jahon iqtisodiyoti muvozanati va tartibga solish maqsadida xalqaro valyuta va fond bozorlaridagi moliyaviy operatsiyalar;

xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash; to'lov balansi defitsitini kamaytirish; davlatlarning mintaqa va soha rivojlanish dasturlarini kreditlash hamda kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish;

infratuzilma, axborot texnologiyalari, transport va aloqa sohalaridagi xalqaro dasturlarni moliyalashtirish;

tabiatni muhofaza qilish, fundamental ilmiy izlanishlar va sohalarni moliyalashtirish kabi maqsadlarni o'z oldilariga qo'yishini ta'kidlash mumkin.

Ilk xalqaro moliya institutlari, Xalqaro valyuta fondi (XVF) hamda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), 1929–1933-yillardagi butun dunyoni larzaga keltirgan jahon iqtisodiy inqirozi ("Buyuk depressiya") hamda 1939–1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushining salbiy natijalari bo'lgan jahon xo'jaligida beqarorlik, mamlaktlar o'rtasida turli savdo nizolari, valyuta va kredit-moliya tizimlarining nihoyatda past darajaga tushib qolishi kabi vaziyatlarga javoban, 1944-yilning 1-22 iyul kunlari AQSHning Bretton-Vuds shahrida Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) kredit-moliya muammolariga bag'ishlangan konferensiyasida tashkil etilgan. Unda Xalqaro moliya institutlarining tashkil etilishi negizida, jahon iqtisodiyotidagi beqaror vaziyatlarni vujudga keltiradigan muammolarni hal etish yotardi.

Hozirgi davrda 4 mingdan ortiq xalqaro tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning 300 dan ortig'i hukumatlararo tashkilotlardir. Ularning markazida Birlashgan Millatlar Tashkiloti joylashgan. Ularning eng yiriklarini sanab o'tamiz:

**- Xalqaro Valyuta Jamg'armasi** *(International Monetary Fund)* – 1944-yilda tashkil etilgan va 1947-yil 1-martdan o'z faolityatini yurita boshlagan bo'lib, xalqaro valyuta tizimining rivojlanishiga va unga a'zo 189 ta davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatiga yordam beradi. XVF joriy yoki potensial to'lov balansida qiyinchiliklarga duch kelayotgan a'zo mamlakatlarga xalqaro zaxiralarni tiklash, milliy valyutalarni barqarorlashtirish, import uchun to'lovni davom ettirish va asosiy muammolarni hal qilishda kuchli iqtisodiy o'sish sharoitlarini tiklashga yordam berish uchun kreditlar beradi.

- **Jahon Banki** (*The World Bank)* **—** Xalqaro Moliya Instituti hisoblanib, 1945-yil 27-dekabrda AQSHda tashkil etilgan. 189 ta davlat a'zo bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarga sarmoyalar kiritish, kreditlar taqdim etish bilan shug'ullanadi.

Jahon banki guruhiga turli vaqtlarda vazifalari kengayishi munosabati bilan tashkil etilgan va funksional, tashkiliy va hududiy jihatdan birlashgan 5 ta tashkilot kiradi, masalan:

- Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB);
- Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (IDA);
- Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC);
- Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi (MIGA);
- Investitsion nizolarni hal qilish xalqaro markazi (ICSID)

**Mintaqaviy rivojlanish banklari:**

**- Amerikaaro Rivojlanish banki** *(Inter-American Development Bank)* – 1959-yilda Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari iqtisodiga moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan xalqaro moliyaviy tashkilotdir. Bu mintaqani rivojlantirishni moliyalashtirishning eng katta manbaidir. Uning Bosh qarorgohi Vashington shahrida joylashgan.

**- Osiyo taraqqiyot banki** *(Asian Development Bank)* – tashkil etish g'oyasi 1957-yil tug'ilgan hamda 1966-yil dekabrda tashkil etilib, uning asosiy vazifasi Osiyo va Uzoq Sharq mintaqalariga to'g'ridan to'g'ri kreditlar va texnik yordam berish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish etib belgilangan. Bosh qarorgohi Manila shahri (Filippin)da joylashgan.

**- Afrika rivojlanish banki** *(The African Development Bank)* – 1960-yil, 1963-yil Nizomi tasdiqlangan. Butun Afrika qit'asida iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish uchun moliyaviy resurslarni taqdim etish uchun yaratilgan bankdir. Bosh qarorgohi Abidjan shahri (Kot-d'Ivuar davlati)da joylashgan

**- Evropa taraqqiyot va tiklanish banki** *(European Bank for Development and Reconstruction)* – tashkil etish g'oyasi 1989-yil oktyabr, Nizomi 1991-yil 9-aprelda tasdiqlangan. Sovuq urush tugaganidan keyin Markaziy va Sharqiy Yevropada yangi davrni barpo etish maqsadida tashkil etilgan. Shtab-kvartirasi Londonda. 1990-yil 29-mayda 40 ta davlat va ikkita Yevropa tashkiloti kabi ishtirokchilar tomonidan imzolangan.

YETTB bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar (davlat mulki va korxonalarini xususiylashtirish hamda monopoliyadan chiqarish; tadbirkorlikni rivojlantirish; ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va moliya sektorlariga investitsiyalarni jalb etish; kapital bozorini shakllantirish va boshqalar)ga moliyaviy yordam ko'rsatadi va ularning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga tezroq qo'shilishiga ko'maklashadi. Bank kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlar sinfini shakllantirish masalalariga katta e'tibor beradi, transport, energetika, ishlab chiqarish sohalaridagi yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashda ishtirok etadi. Bank resurslarining kamida 60% xususiylashtirilayotgan davlat korxonalari yoki xususiy sektor korxonalariga, 40% infratuzilma yoki boshqa loyihalarga yo'naltiriladi.

YETTB yeksport kreditlar bo'yicha kafolatlar bermaydi va sug'urtalash bilan shug'ullanmaydi.

Shuningdek YETTB quyidagi faoliyat turlarini moliyalashtirmaydi:

- Mudofaa sanoati.

Tamaki sanoati.

- Xalqaro huquqiy me'yorlarda taqiqlangan vositalarni ishlab chiqarish.

- Qimor biznesi.

- Atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlar va jarayonlar.

**Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Bankining O'zbekistondagi faoliyati.** O'zbekiston 1992-yil boshida YETTBga a'zo bo'ldi va shu yili Toshkent shahrida uning vakolatxonasi ochildi. 1993-yildan O'zbekistonda loyihalarni amalga oshirishda ishtirok eta boshladi. 1994-yil 10-yanvarda YETTBning Direktorlar kengashi O'zbekiston Respublikasiga loyihalarni moliyalash masalalari bo'yicha salbiy garov shartlarini bekor qildi.

YETTB O'zbekistonda moliyaviy sektor va bank infratuzilmasini rivojlantirish, energetika majmui, turizmni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, bozor infratuzilmasini shakllantirish, tabiiy resurslarni o'zlashtirish, paxtani qayta ishlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarini taraqqiy ettirish kabi yetti yo'nalishda faoliyat yuritadi. YETTB Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini jihozlash (umumiy qiymati 81,5 mln. ekyu), energetika ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va Sirdaryo GRESning xalqaro andozalarga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan (umumiy qiymati 25,2 mln. ekyu) va Toshkent xalqaro aeroportini ta'mirlash, shuningdek, xavfsizlikni oshirish uchun maxsus jihozlar sotib olish (umumiy qiymati 43,5 mln. ekyu) loyihalarni amalga oshirish uchun kreditlar ajratdi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda YETTB ishtirokida umumiy qiymati 4 mlrd. 422 million yevrodan ortiq bo'lgan 151 loyiha amaliyotga joriy etilmoqda, faol portfel loyihalari soni 85 ta, loyihalarning joriy portfeli 2 mlrd 452 mln yevro, jami to'lovlar miqdori 1 mlrd 990 mln yevro, operatsion aktivlar 1 mlrd 15 million yevro, portfelning xususiy sektor ulushi 57 %, portfelning kapital ulushi 3% .

Xususan, YETTB tomonidan O'zbekistonda o'rta va kichik biznesni rivojlantirish maqsadida 120 mln. AQSH dollaridan iborat kredit berildi. Shundan 60 mln. AQSH dollari hukumat kafolatisiz O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga, 60 mln. dollari esa hukumat kafolati bilan boshqa tijorat banklariga berilgan.

YETTB O'zbekistonda o'z faoliyati yettita yo'nalishini belgiladi. Bular quyidagi sohalarni rivojlantirishga qaratiladi:

- moliya sektori va bank infratuzilmasi;

- kichik va o'rta korxonalar;

- bozor infratuzilmasi;

- energetika majmuasi;

- paxtani qayta ishlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlari;

- sayyohlik infratuzilmasi;

- tabiiy resurslarni o'zlashtirish.

YETTB besh qit'aning 73 davlatiga, shuningdek, Yevropa Ittifoqi va Yevropa investitsiya bankiga tegishli. Har bir aksiyador bank ustidan umumiy vakolatga ega bo'lgan va uning umumiy strategik yo'nalishini belgilab beruvchi YETTB Boshqaruv Kengashida alohida vakillik qiladi. Bank ustidan umumiy vakolatlarni saqlab qolgan holda, Boshqaruv Kengashi o'z vakolatlarining aksariyat qismini Direktorlar Kengashiga topshirdi. Shu bilan birga, Boshqaruv Kengashi bankka a'zolikni aniqlash, kapital tarkibidagi o'zgarishlar, Direktorlar va Bank Prezidentini tayinlash hamda moliyaviy hisobotlar bo'yicha qarorlar qabul qilish hamda zaxiralarni aniqlash va foyda taqsimoti uchun faqat javobgar bo'lib qoladi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Daromadlar segmenti – jo‘g‘rofiy shaklda

Bank faoliyati ichki boshqaruv maqsadlari uchun to‘qqizta hududga bo‘lingan.

| | 2023-yil Segment daromadi (million yevroda) | 2022-yil Qayta hisoblangan segment daromadi (million yevroda) |
|---|---|---|
| *Markaziy Osiyo* | 571 | 427 |
| *Markaziy Yevropa va Boltiq bo‘yi* | 582 | 167 |
| *Kipr va Gretsiya* | 225 | 42 |
| *Sharqiy Yevropa va Kavkaz* | 466 | 21 |
| *Rossiya* | 69 | 729 |
| *Janubi-sharqiy Yevropa* | 567 | 248 |
| *Janubiy va sharqiy O‘rta yer dengizi* | 488 | 227 |
| *Turkiya* | 711 | 375 |
| *boshqa qatnashchilar* | 1,463 | 798 |
| ***Jami*** | 5,142 | 3,034 |

YETTB kapitalni oxirgi marta oshirganiga 10 yildan ortiq vaqt o‘tdi. 2010-yilning may oyida Boshqaruv kengashi YETTB prezidentining ustav kapitalini 2009-yildagi darajadan 50 foizga oshib, 30 milliard yevroga (33,15 milliard dollar) oshirish bo‘yicha 10 milliard yevro (11,05 milliard dollar) so‘rovini ma’qulladi. Jami ruxsat etilgan summadan 6,2 milliard yevro (6,85 milliard dollar) to‘langan kapital va 23,5 milliard yevro (25,97 milliard dollar) chaqiriluvchi kapital hisoblanadi. Bankning operatsiyalar portfeli 2020-yildagi 48,4 milliard yevrodan (50,74 milliard dollar) 50,2 milliard yevroga (2021-yil oxiriga kelib 52,64 milliard dollar) oshdi.

**2021-MOLIYA YILI UCHUN HUDUDLAR BO‘YICHA YTTB KREDITLARI**




## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilib aytish mumkinki, xalqaro moliya institutlarining faoliyat ko‘lami so‘ngi yillarda, ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta’sirida yanada kengayib, ularning xalqaro munosabatlarda hamda davlatlarning moliyaviy siyosatiga ta’sir ko‘rsatishdagi o‘rni kengayib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida xalqaro moliya institutlari dunyo ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim subyektlar qato-

riga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan shuni koʻrishimiz mumkinki, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash uchun faqatgina mavjud ichki resurslardan emas, balki xalqaro moliya institutlari resurslaridan foydalanish ham asosiy omillardan hisoblanadi.

Shunday ekan, xalqaro moliya institutlarining asosiy mohiyati sifatida dunyo mamlaktlariga moliyaviy va malakaviy yordam berish; jahon iqtisodiyoti muvozanatini saqlash va uni tartibga solish; xalqaro valyuta va fond bozorlaridagi moliyaviy operatsiyalarni tartibga solish; xalqaro savdoni qoʻllab-quvvatlash; toʻlov balansi defitsitini kamaytirish; davlatlarning mintaqa va soha rivojlanish dasturlarini kreditlash; kichik va oʻrta biznesni ragʻbatlantirish; infratuzilma, axborot texnologiyalari, transport, aloqa va boshqa turli sohalaridagi xalqaro dasturlarni moliyalashtirish; tabiatni muhofaza qilish; fundamental ilmiy izlanishlar va sohalarni moliyalashtirish kabi vazifalar yotishini ham yuqori oʻrinlarda keltirib oʻtdik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI


1. Financial Report 2023 Financial Control: Pete Furneaux, Gordon Jones, Joshua Nair.
2. Ian Hurd. International Organizations: Politics, Law, Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 282 p.
3. J.X. Ataniyazov, E.D. Alimardonov. Xalqaro moliya munosabatlari: darslik. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. – 432 b.
4. Авдокушин Е.Ф., Аникеева-Науменко Л.О. Международные валютно-кредитные отношения: Учебное пособие. – М.:МГУПС (МИИТ), 2015. – 89 с.
5. The Max Planck Encyclopedia of Public International Law. 10 vols. Edited By Ruüdiger Wolfrum. Oxford, New York: Oxford University Press, 2012. – Pp. 12 000.
6. Angus Maddison. The World Economy. A Millenial Perspective. [Elektron resurs]. URL: https:// theunbrokenwindow.com.
7. Сидоров А.А. Бреттонвудская конференция и строительство послевоенного мирового порядка // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 25: международные отношения и мировая политика. – 2014. – № 4. – С.140.
8. Black S.W. A Levite among the priests: Edward M. Bernstein and the origins of the Bretton Woods system. Boulder: Westview Press, 1991.
9. Joseph E. Stiglitz. Globalization and Its Discontents, 2002. W.W. Norton & Co., New York – London. 304 p. ISBN: 0-393-05124-2.
10. J. A Winters, J. Pincus and J. A. Winters (Ed). Reinventing the World Bank. Ithaca, NY: Cornell University Press, 2002. 280 p.
11. B. Johnson. The World Bank and Economic Growth: 50 Years of Failure, Heritage Fund, 1996. [Elektron resurs]. URL: https://www.heritage.org/trade/report/the-world-bank-and-economic- growth-50years-failure
12. Regional Economic Prospects in the EBRD Regionsc.
13. Steil B. The Battle of Bretton Woods: John Maynard Keynes, Harry Dexter White, and the Making of a New World Order. Princeton, NJ: Princeton University Press, 2013. – 255 p.
14. Nurkse R. International Currency Experience: Lessons of the Interwar Period. League of Nations. 1944. P. 137.
15. Williams J. H. Currency Stabilization: the Keynes and White Plans // Foreign Affairs. Vol. 21. No. 4. 1943. 14 p.
16. Barry D. Karl. Harry Dexter White: A Study in Paradox, History: Reviews of New Books, 1974. 2:9, 214-215, DOI: 10.1080/03612759.1974.9946466
17. Forgotten Foundations of Bretton Woods: International Development and the Making of the Postwar Order. By Eric Helleiner. Ithaca, NY: Cornell University Press, 2014. – 304p. DOI: https:// doi.org/10.1017/S1537592714002990
18. Ван дер Вее Герман. История мировой экономики. 1945–1990 (пер. с фр.) — М.: Наука, 1994. – 18с.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.